



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-mart

144-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-martdagi 158-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 140-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son, “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son, “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta‘minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-martdagi 158-son qarorlari hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martdagi 140-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 19-martdagi 140-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 158-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”

2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-sonli qaroriga muvofiq:

Jamoat ishlari jamg‘armasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

Jamg‘armaning vasiylik kengashi tarkibi tasdiqlanganligi;

Jamg‘arma vasiylik kengashi Jamg‘armaning oliy boshqaruv organi, 22 ta shtat birligidan iborat Jamg‘armaning Ijro etuvchi direksiyasi esa uning ijro organi etib belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasining Ijro etuvchi direksiyasi tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya, grant va ssudalar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

Jamg'arma Jamoat ishlari jamg'armasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasining huquqlari va majburiyatlari hamda shartnomalar, shu jumladan, xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

2025-yil 1-oktabrdan boshlab Jamg'arma mablag'lari hisobidan fuqarolarga naqd pul shaklida beriladigan subsidiya, grant va ssudalar bosqichma-bosqich ijtimoiy karta orqali taqdim etiladi;

Jamg'arma Ijro etuvchi direktori va uning o'rinbosari Jamg'armaning vasiylik kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori Jamg'arma direksiyasi ishini tashkil etadi;

Jamg'arma xodimlari Jamg'armaning ijro etuvchi direktori tomonidan ishga qabul qilinadi va ishdan bo'shatiladi;

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori maqomi, tibbiy, transport va maishiy ta'minot sharoitlari, shuningdek, Jamg'arma xodimlarining mehnatga haq to'lash razryadlari Jamg'armaning vasiylik kengashi tomonidan belgilanishi;

Jamg'armaning asosiy maqsadi "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oila a'zolarining bandligini rag'batlantirish va tadbirkorlikka jalb etishga ko'maklashish uchun ushbu shaxslarga hamda ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga subsidiya, grant va ssudalar ajratish hisoblanishi;

Jamg'arma Toshkent shahri, Qoratosh ko'chasi, 1-uy manzilidagi O'zbekiston banklari assotsiatsiyasining "Moliya Binokor Xizmat" shu'ba korxonasi binosiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov